

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

“IQTISODIYOT” kafedrasи

**5230100-“Iqtisodiyot” ta'lif yo'nalishi
42-13 guruh talabasi**

Qobilov Sherzod ning

**“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJET
TIZIMI VA BYUDJET MUNOSABATLARINING
RIVOJLANISH BOSQICHLARI ”**

(Respublika byudjet tizimi misolida)

mavzusida bajargan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar: **“IQTISODIYOT” kafedrasи**
 o'qituvchisi **MAHMUDOVA G.R.**

Guliston – 2017

Bitiruv malakaviy ishi Guliston Davlat Universitetining 2017 yil 15 apreldagi
 _____ -S-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat attestatsiya komissiyasining
 _____ -sonli yig'ilishida muhokama qilindi va “_____” ball bilan (_____)
 baholandi.

(a'lo, yaxshi, qoniqarli)

Bitiruv malakaviy ishi “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakultetning 2017 yil
 “_____” dagi _____ – sonli Ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan
 Davlat attestatsiyasi komissiyasiga himoya qilish uchun tavsiya etildi.

Fakultet dekani:

t.f.n. B.To'ychiboyev

Bitiruv malakaviy ish “Iqtisodiyot” kafedrasining 2017 yil
 “_____” dagi _____ –sonli yig'ilishida muhokama qilindi va himoyaga
 tavsiya etildi.

Kafedra mudiri:

i.f.n. O.Sattorqulov

BMI bajaruvchi “5230100-“Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi 42-13-guruh
 talabasi _____ Qobilov Sh.

Rahbar “Iqtisodiyot” kafedrasи o’qituvchisi _____ **MAHMUDOVA G.R.**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BYUDJET TIZIMI VA UNI AMAL QILISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1 Byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	7
1.2 Byudjet tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	14
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJET TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT TADBIRLARI...19	
2.1 Byudjet tizimini boshqarish organlari va ularning asosiy vakolatlari.....	19
2.2 Byudjet tizimi daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet tizimi tuzilishining hozirgi holati tahlili.....	27
III BOB. BYUDJET TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....51	
3.1 Byudjet tizimi islohotlari doirasida davlat byudjeti g'azna ijrosini rivojlantirish istiqbollari.....	51
3.2 Byudjet islohotlari sharoitida davlat byudjetini o'rta muddatli istiqbolini belgilashni rivojlantirish masalalari.....	54
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....62	
ILOVALAR.....	67

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliги. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimini samarali boshqarishning hozirgi kundagi holati nazariyotchilar oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Bu borada byudjet sohasida olib borayotgan o'zgarishlarning markazida byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini tubdan o'zgartirish, daromadlari bazasini mustahkamlash, iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tutgan o'rmini oshirish masalalari turadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek - "Bizning o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz – boshlagan islohotlarimiz, iqtisodiyotimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirish, hayotimiz darajasi va sifatini izchil oshirib borishni ta'minlash, tenglar ichida teng bo'lib, jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashdan iboratdir."¹

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta masuliyatlari vazifalarni samarali bajarilishini talab etmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida respublikamizda byudjet tizimini isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi, uni bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashtirish talab etiladi

Byudjet tizimini muhim bo'g'ini Davlat byudjeti mamlakatni iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Respublikamizda so'ngi yillarda byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston respublikasi o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirib dunyo bozorida o'zini mavqeini mustahkamlab bormoqda.

2017 yil 7 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni qabul qilindi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston

¹ I.A.Krimov. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mayjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Krimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasи 2014 yil 18 yanvar, № 13 (5943)

respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" bo'lib, unda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish: qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; harajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlagan holda, davlat byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish kabi bir qator masalar dolzarb qilib belgilab olindi.²

Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini mamlakatimizda muvoffaqqiyatli amalga oshirilishi, o'z vaqtida mablag' bilan taminlanishida byudjet tizimining roli va ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida byudjet tizimi byutjetlari daromadlarini oshirishni, uni mustahkamlashni va boshqa daromad manbalarini izlashni talab etmoqda. Shuning uchun ham, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimi byudjetlarini moliyaviy tarkibiy tuzilishini o'rgangan holda, uni byudjet tizimi amalyotiga samarali tatbiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. Lekin shunga qaramay ushbu masala dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur muammoning nazariy asoslari dastlab A.Smit, J.B.Sey, Y.Shumpetr, L.Mizes, F.Xaek kabi klassik iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek byudjet daromadlari va xarajatlarini taxlil etish bo'yicha g'arb mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.I.Agaev, A.V.Busigin, B.A.Rayzberg, G.Gross, M.G.Lapusta, S.Piters kabilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ushbu soha bo'yicha o'zbek olimlaridan A.V.Vaxobov, A.Sotvoldiev, M.Tulaxodjaeva, S.S.G'ulomov kabilar o'z asarlarida byudjet daromadlari va xarajatlari taxlili masalalari bilan shug'ullanishgan.

² www.lex.uz. 2017 yil 7 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimini isloh qilishning dolzarb masalalarini tadqiq etish va bu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilangan:

- byudjet tizimi va byudjet munosabatlarni rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganish;
- byudjet tizimining tashkiliy-xuquqiy asoslarini ko'rib chiqish;
- byudjet tizimini boshqarish organlari va ularning asosiy vakolatlarini tahlil qilish;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlari tarkibi, tuzilishining hozirgi holatini ilmiy asoslash;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida byudjet tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va uning rivojlanish bosqichlari, byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlari dinamikasi, uni boshqarish bo'yicha yuzaga kelgan byudjet munosabatlari, shu bilan birga g'aznachilik tizimida byudjet mablag'larini boshqarishga oid munosabatlar ko'rib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini isloh qilishni dolzarb masalalari va budget tizimi byudjetlari, byudjet munosabatlarini samarali tashkil etishga oid Davlat tadbirlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimi byudjetlarining isloh qilishning asosiy yo'nalishlari orqali byudjet qonunchiligin mustahkamlash, byudjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik faoliyatini samarali tashkil etish bilan izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishi **70** bet va **12 121** ta so'zdan iborat bo'lib, u kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Birinchi bobda byudjet tizimi va uni amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslari, byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari, byudjet tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan.

Ikkinci bobda O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda davlat tadbirlari, byudjet tizimini boshqarish organlari va ularning asosiy vakolatlari, byudjet tizimi daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet tizimi tuzilishining hozirgi holati tahlili tadqiq qilingan.

Uchinchi bobda byudjet tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari, byudjet tizimi islohotlari doirasida davlat byudjeti g'azna ijrosini rivojlantirish istiqbollari, byudjet islohotlari sharoitida davlat byudjetini o'rta muddatli istiqbolini belgilashni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Ishning xulosa qismida o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, xulosalar, takliflar va tavsiyalar berilgan.

I BOB. BYUDJET TIZIMI VA UNI AMAL QILISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosida o'ta masuliyatli vazifalarni samarali boshqarilishi talab etilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek “Bizning vazifamiz, kerak bo'lsa, oliv burchimiz – farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan etuk, rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimiz kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun qo'limizdan kelgan barcha-barcha ishlarni amalga oshirishdan iboratdir”³.

Byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish printsiplari, ular o'rtaida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi.⁴

Byudjet tizimi quyidagi printsiplarga asoslanadi: (1.1-chizma)

- byudjet tizimining yagonaligi;
- byudjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;

³ I.A.Krimov. “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi”. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Krimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2014 yil 18 yanvar, № 13 (5943)

⁴ O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O'RQ-360-son Qonuni

-budjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
 -byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;

Byudjet tizimi prinsiplari

- byudjet tizimining yagonaligi
- byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi
- byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish
- byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati
- byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi
- byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi
- kassaning yagonaligi
- byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi
- ochiqlik

1.1-chizma. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet tizimi printsiplari⁵

- byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ochiqlik.

Byudjet tizimining ya gonaliyi printsipi byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarining shakllari, byudjet tasnifi yagona bo‘lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, byudjet

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O‘RQ-360-son Qonuni

hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishi lozim.

Byudjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi printsipi byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishi lozim.

Byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi printsipi byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishi kerak.

Byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda byudjetlarning mablag'lari mazkur byudjetlarning balansliligini ta'minlash uchun ular o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish printsipi byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati printsipi. Byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari muayyan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga ushbu mablag'lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi printsipi byudjet tizimi byudjetlari mustaqil bo'lishi lozimligini ifodalaydi.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi printsipi byudjet jarayoni ishtirokchilari byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida byudjet tizimi byudjetlarining belgilangan hajmdagi mablag'laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Kassaning yagonaligi printsipi byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritiladi va ularning xarajatlarini to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshiriladi.

Byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsipi byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsipi byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonining har bir bosqichida o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishidan iboratdir.

Ochiqlik printsipi: Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ko‘rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini; tasdiqlangan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari to‘g‘risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini (chop etilishini); davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari ijrosining borishi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

Davlat byudjeti tuzilmasi quyidagi byudjetlardan iborat: (1.2- chizma)

- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tuzilmasi quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:


-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

-Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

-Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari

Davlat maqsadli jamg‘armalari quyidagi jamg‘armalardan tashkil topgan:



1.2-chizma. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti tuzilmasi⁶

⁶ O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O'RQ-360-son Qonuni

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi;
 - Davlat mulkini xususiyashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko’maklashish davlat jamg‘armasi;
 - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi;
 - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi;
 - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi.

O‘zekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armaning Kuzatuv kengashidir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi majburiy to‘lovlardan va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi, keyinchalik ulardan umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirish dasturlarini (loyihalarini) hamda ularning lozim darajadagi texnik holati va o‘tkazish qobiliyatiga erishishga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘arma kengashidir.

Davlat mulkini xususiyashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi davlat mulkini xususiyashtirishdan tushadigan, belgilangan tartibda taqsimlanadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi xarajatlar moliyalashtirilishini ta’minlash uchun yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar va ushbu Kodeksning 56-moddasida nazarda tutilgan boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash, jihozlashga (to‘liq jihozlashga) yo‘naltiriladigan, ushbu Kodeksning 57-moddasida nazarda tutilgan majburiy to‘lovlari va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armaning boshqarish kengashidir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi ushbu Kodeksning 58-moddasida nazarda tutilgan va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga doir dasturlarni (loyihalarni) hamda meliorativ ob’ektlarning lozim darajadagi texnik holatini ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishga, shuningdek meliorativ texnika olishga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining yuqori organi Jamg‘arma kengashidir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi ushbu Kodeksning 59-moddasida belgilangan va oliy o‘quv yurtlarining moddiy- texnika bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini boshqarish vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari quyidagilardir:

- ✓ Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi;
- ✓ Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi;
- ✓ Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari;
- ✓ Byudjet tashkilotlarining undiriladigan to‘lovlar hisobiga shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag‘lari.

1.2. Byudjet tizimining tashkiliy-xuquqiy asoslari

So‘ngi yillarda xukumat oldida Davlat boshqaruv institutlarini tubdan isloh qilish masalalari ko‘tarila boshlandi. Bu islohotlarda eng asosiy vaziflardan biri Davlat moliyasi va byudjet tizimini isloh etish edi. Xo‘jalik yuritishni bozor tizimiga o‘tilishi, iqtisodiyotni bozor infratuzulmasini shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jalik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asosni yaratishni talab etadi. Undan tashqari jahondagi globallashuv jarayonlarida

faol qatnashayotgan O‘zbekiston uchun davlat boshqaruv institutlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston byudjet tizimini amal qilishining huquqiy asosini quyidagi asosiy hujjatlar tashkil etadi:

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi⁷ xususan:

- ❖ 100-moddaga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish kiradi.
- ❖ 122-modda. O‘zbekistonning davlat byudjeti Respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat ekanligini belgilaydi.

“Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida”gi Qonun⁸ - hududlarning moliyaviy resurslarini, mahalliy hokimiyat organlarining byudjetga doir huquqlarini, mahalliy byudjetlarning daromadlari va sarf-xarajatlarini va boshqalarni belgilaydi.

Soliq kodeksi⁹ 23-moddasi, unda umumdavlat va maxsus qismida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha har birining elementlari, ularni hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi belgilangan.

Bu soxani isloh etish O‘zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to‘g‘risida» gi 2000 yil 14 dekabrda 158-II Qonuni qabul qilinishi bilan boshlanib, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksini qabul qilinishi bu jarayoni ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, ushbu Kodeks:

- O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini tuzish printsiplari va uning tuzilmasini, byudjet tasnifi byudjet sohasidagi vakolatlar;
- Byudjet tizimi byudjetlari;
- O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti;
- O‘zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi;

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil 8 dekabrdagi qabul qilingan.

⁸ “Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrdagi Qonuni.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O‘zRning 2007 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

- Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari;
- Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari;
- Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda tasdiqlash;
- Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi;
- Byudjet hisobi va hisoboti;
- Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi¹⁰ Qonunining 10, 11-moddalariga mahalla fuqarolar yig‘ini kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish va bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag‘lardan o‘z o‘rnida va samarali foydalанишini ta’minlaydi hamda pul mablag‘larining sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi.

Fuqarolar yig‘ining kengashi Qonunning 12-moddasiga ko‘ra, ikki yoshga to‘lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga nafaqalarni shu maqsadda ajratilgan davlat byudjeti mablag‘laridan belgilangan tartibda tayinlaydi va to‘laydi, aholidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar o‘z vaqtida tushishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston byudjet tizimi byudjetlarining faoliyat yuritishining huquqiy asosini Prezident farmonlari va qarorlari, Oliy Majlis va Hukumat qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi hokimiyat ijro etuvchi organlarining hujjatlari, eng avvalo quyidagi hujjatlar tashkil etadi:

- Oliy Majlis tomonidan har yili qabul qilinadigan “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qarorlar hamda ular asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan keyingi moliya yili uchun qabul qilinadigan “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari;

¹⁰ “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” O‘zRning 1999 yil 14 apreldagi 758-I-son Qonuni.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldag'i PQ-594-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010 yil 20 avgustdag'i 65-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomা”
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999 yil 11 fevraldag'i 66-son Qarori;
- va boshqa hujjatlar.

Davlat byudjeti hisobiga mablag‘ bilan ta’minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Maxkamasi 03.09.1999 yil № 414-sonli qarorni qabul qildi. Ushbu qarorda byudjet tashkilatlari xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibi belgilandi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida byudjetdan mablag‘ oluvchilarining tovarlarni etkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, hamda ularning xarajatlarini to‘lashga qaratilgan byudjet mablag‘larini o‘tkazishini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

2007 yil 20 martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 53-sonli qarori asosida “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom ” qabul qilindi.

Mazkur Nizom “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldag'i PQ-594 sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqildi.

G‘aznachilik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va o‘z faoliyatiga tegishli bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy xujjatlarga amal qiladi.

2009 yil 16 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan № 2007-raqam bilan ro‘yxatga olingan « Davlat byudjetining g‘azna ijrosi Qoidalari» O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustdagи № 69 - sonli buyrug‘i qabul qilindi.

Xozirgi kunda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi Qoidalari”- “O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagи PQ-594-son “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘limmalarini tomonidan respublika va hududiy g‘azna hisobvaraqlarini qo‘llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g‘azna ijrosini amalgalash tartibini belgiladi.

2007 yil 30 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi bo‘yicha funktsiyalarini chegaralash to‘g‘risida Nizom” ni 119-tonli buyrug‘i bilan tasdiqladi.

Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan Nizom O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni g‘azna ijrosi borasida O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Markaziy apparati tarkibiy bo‘limmalarini (G‘aznachilikdan tashqari), Moliya organlari zimmalariga qo‘ylgan funktsiyalar bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘limmalarini zimmalariga qo‘ylgan funktsiyalarini chegaralab berdi.

**II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJET
TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA
DAVLAT TADBIRLARI**

**2.1 Byudjet tizimini boshqarish organlari va ularning
asosiy vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimini boshqarish organlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimini boshqarish organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihibalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

-Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihibalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

-byudjetnomalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
-byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

-davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

-davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

-o'tgan moliya yili uchun davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

-davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

-O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini qonun hujjaligiga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi:

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

-Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot bo‘yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

-vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda banklarning byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlari moddalarining maqsadli ijrosini boshlang‘ich ma’lumotlar bo‘yicha nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimlari va resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

-Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari daromad qismining ijrosi yuzasidan monitoring o‘tkazadi;

-byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qonun hujjaligiga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko‘rib chiqadi va qabul qiladi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishinchcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

-mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari:

-tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

-byudjet so‘rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishinchcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko‘rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi

to‘g‘risidagi hisobotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

-Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

-byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘sishimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishinchaligini Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihibarini tayyorlaydi;

-davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihibarini ko‘rib chiqadi;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjetnomasi loyihasini ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

-O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda etkazadi;

-byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini etkazadi;

-byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

-soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

-byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar, shuningdek byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risida hisobot taqdim etadi;

-byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;

-Davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

-byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

-byudjet ssudalarini beradi;

-davlat tomonidan mablag‘lar jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafo latlarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;

-davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;

-byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;

-byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;

-byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;

-byudjet tizimi byudjetlarida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig‘iga ko‘ra to‘lovlarini amalga oshiradi;

-byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

-davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi, O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;

-O‘zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko‘maklashish mablag‘lari hisobini yuritadi;

-byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balansliligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi;

-o‘z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Hududiy moliya organlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

-soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

-tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘srimcha zaxiralarni aniqlaydi;

-byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag‘lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi;

-byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- tegishli byudjetlarning mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to‘g‘risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

-byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

-tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

-mahalliy davlat hokimiyyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda:

-Davlat byudjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha yetkazadi;

-byudjet ssudalarini beradi.

-hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

-byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olish uchun byudjet so‘rovlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

-byudjet buyurtmalarini tuzish uchun ko‘rsatkichlarni va materiallarni o‘z tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazadi;

-xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish uchun o‘z tasarrufidagi tashkilotlarga ularning tegishli moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag‘lari hajmlarini yetkazadi;

-o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

-tasdiqlangan xarajatlar smetalarini va jamlanma xarajatlar smetalarini, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etadi;

-xarajatlar smetalari va shtat jadvallaridagi o‘zgartirishlar to‘g‘risida o‘z tasarrufidagi tashkilotlarni xabardor qiladi;

-o‘z tasarrufidagi tashkilotlarda byudjet hisobi yuritilishini tashkil etish va nazorat qilishni ta’minlaydi;

-o‘z tasarrufidagi tashkilotlardan moliyaviy hisobotlarni qabul qiladi;

-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli davr uchun jamlanma moliyaviy hisobotlar taqdim etadi.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar qonun hujjaliga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar:

-xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi hamda ularni byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga, byudjet mablag‘larini taqsimlovchi bo‘lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kiritadi;

-xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni mo‘ljallangan maqsadga muvofiq tasarruf etadi;

-byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi;

-tegishli davr uchun moliyaviy hisobotlarni byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga, byudjet mablag‘larini taqsimlovchi bo‘lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga taqdim etadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar:

-davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalarini tayyorlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kiritadi;

-davlat maqsadli jamg‘armalarining mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

-davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga yilning har choragida yetkazadi;

-davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar va boshqa tushumlar to‘liq hamda o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

-davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

-davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ijro etish jarayonida tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

-davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari maqbullashtirilishini amalga oshiradi;

-davlat maqsadli jamg‘armalarining Yagona g‘azna hisobvarag‘i va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;

-davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

-davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi.

-Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

2.2. Byudjet tizimi daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet tizimi tuzilishining hozirgi holati tahlili

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi quyidagilardan iborat:¹¹

-soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

-davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;

-meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

¹¹ O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O‘RQ-360-son Qonuni

-yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

-rezident - yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;

-qonun hujjaligiga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2016 yil 28 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Davlat byudjeti va Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari to’g’risida”gi 618-III-sonli, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2016 yil 13 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Davlat byudjeti va Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari to’g’risida”gi QS-122-III-sonli, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ-2699–sonli hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2016 yil 29 dekabrdagi 69/25-25-sonli qarorlariga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2016 yil 28 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Davlat byudjeti va Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari to’g’risida”gi 618-III-sonli, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2016 yil 13 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Davlat byudjeti va Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari to’g’risida”gi QS-122-III-sonli, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ-2699–sonli (bundan buyon–Prezident qarori) hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2016 yil 29 dekabrdagi 69/25-25-sonli qarorlari qabul qilindi. (1 ilova)

Davlat byudjeti daromadlarini tahlil qilar ekanmiz, 2.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, daromadlar tarkibida egri soliqlar salmoqli o‘ringa ega. Ushbu daromadlar 2011 yilda 53,2 foizni, 2012 yilda 53,5 foizni, 2013

yilda 54,3 foizni, 2014 yil 51,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 51,8 foizni, 2016 yilda 53% tashkil etdi. Jumladan, qo‘shilgan qiymat solig‘i 2011 yilda 30,4 foizni, 2012 yilda 32,3 foizni 2013 yilda 32,9 foizni, 2014 yilda 30,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 30,3 foizni, 2016 yilda deyarli 56 foizni tashkil etgan. Aktsiz solig‘i 2011 yilda 16,7 foizni, 2012 yilda 15,3 foizni 2013 yilda 15,1 foizni, 2014 yilda 14,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 14,9 foizni, 2016 yilda 29 foizni tashkil etdi. Bojxona boji 2011 yilda 3,6 foizni, 2012 yilda 3,2 foizni 2013 yilda 3,6 foizni, 2014 yilda 4,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 3,8 foizni, 2016 yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 2011 yilda 2,4 foizni, 2012 yilda 2,7 foizni 2013 yilda 2,7 foizni, 2014 yilda esa 2,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 2,8 foizni, 2016 yilda 7,2 foizni tashkil etdi. Davlat byudjeti daromadlarida to‘g‘ri soliqlarning salmog‘ini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu soliqlar 2011 yilda 26,1 foizni, 2012 yilda 26,2 foizni 2013 yil 25,2 foizni, 2014 yilda 26,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 25,8 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i 2011 yilda 4,9 foizni, 2012 yilda 5,1 foizni 2013 yil 4,4 foizni, 2014 yilda 4,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2015 yil 4,3 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to‘lovidan davlat byudjetiga ajratmalar 2011 yilda 2,2 foizni, 2012 yilda 3,3 foizni 2013 yilda 3,4 foizni, 2014 yilda 3,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yil 3,3 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 2011 yilda 11,7 foizni, 2012 yilda 11,1 foizni 2013 yilda 11,5 foizni, 2014 yilda 11,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yil 11 foizni tashkil etgan. (2.1-jadval)

Davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlar salmog‘i 2011 yilda 15,0 foizni, 2012 yilda 14,3 foizni 2013 yilda 13,3 foizni, 2014 yilda 15,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yil 15,0 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti quyidagi daromadlardan tashkil topgan:¹²

1) umum davlat soliqlari, shu jumladan:

¹²O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O‘RQ-360-son Qonuni

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlar tizimi¹³

Ko'rsatkichilar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan (%)								
I. Davlat maqsadli jaung'rmalar daromadlarisiz – jami	13116,4	100,0	16178,5	100,0	20614,1	100,0	25104,9	100,0	30160,8	100,0
1. To'g'ri soliqlar	3420,6	26,1	4238,7	26,2	5196,4	25,2	6583,1	26,2	7790,4	25,8
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	645,4	4,9	825,0	5,1	917,2	4,4	1239,0	4,9	1302,3	4,32
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	297,0	2,2	527,4	3,3	703,5	3,4	817,3	3,3	989,8	3,3
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	346,3	2,6	378,3	2,3	538,5	2,6	755,1	3,0	911,6	3,0
1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1535,0	11,7	1789,7	11,1	2372,7	11,5	2769,7	11,0	3313,9	11,0
1.5. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	139,1	1,1	187,5	1,2	218,1	1,1	342,1	1,4	505,0	1,68
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	457,6	3,5	530,6	3,3	446,4	2,2	659,9	2,6	767,8	2,55
2. Egri soliqlar	6973,8	53,2	8656,8	53,5	11187,8	54,3	13039,4	51,9	15618,2	51,79
2.1. Qo'shigan qiymat solig'i	3987,9	30,4	5228,7	32,3	6784,5	32,9	7737,8	30,8	9123,1	30,25
2.2. Aksiz solig'i	2191,1	16,7	2481,7	15,3	3115,5	15,1	3726,5	14,8	4506,0	14,94
2.3. Bojhona boji	479,2	3,6	515,9	3,2	732,4	3,6	992,6	4,0	1142,0	3,79
2.4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatalganlik uchun olinadigan soliq	315,4	2,4	430,3	2,7	555,4	2,7	582,5	2,3	847,1	0,28
3. Mol-mulk va resurs to'lovleri	1974,1	15,0	2308,9	14,3	2746,4	13,3	3755,5	15,0	4521,4	14,99
3.1. Mol mulk solig'i	354,1	2,7	490,5	3,0	642,0	3,1	831,4	3,3	1135,0	3,77
3.2. Yer solig'i	303,8	2,3	346,8	2,1	446,0	2,2	646,3	2,6	665,2	2,21
3.3. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	1265,0	9,6	1409,7	8,7	1585,3	7,7	2180,1	8,7	2595,8	8,61
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	51,2	0,4	61,8	0,4	73,1	0,4	97,7	0,4	125,4	0,42
4. Ustama foyda solig'i	25,7	0,2	142,3	0,9	250,0	1,2	294,5	1,2	388,4	1,29
5. Boshqa daromadlar	722,1	5,5	831,7	5,1	1233,5	6,0	1432,4	5,7	1842,4	6,11

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi PQ-1245, 2010 yil 24 dekabrdagi PQ-1449, 2011 yil 30 dekabrdagi №1675, 2012 yil 12 dekabrdagi №1887-sonli va 2013 yil 25 dekabrdagi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- yagona soliq to‘lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aktsiz solig‘i;
- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 2) bojxona bojlari;
- 3) qo‘shimcha foyda solig‘i;
- 4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo‘yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;
- 5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to‘lanishidan tushgan tushumlar;
- 6) qonun hujjaligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari, kompensatsiya to‘lovleri va jarima sanktsiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tkazilgan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar, aktsiyalarning davlat ulushi (payi) bo‘yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lov, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjaligiga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:
 - yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
 - yagona soliq to‘lovi;
 - jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
 - tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq;

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:
 - obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
 - transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
 - mol-mulk solig'i;
 - yer solig'i;
 - yagona yer solig'i;
 - ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im;
- 3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- 4) bozorlardan tushadigan daromadlar;
- 5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjalari muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanktsiyalar, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lган xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjalari muvofiq boshqa daromadlar kirdi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar, viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o‘simlik yog‘i uchun aktsiz solig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o‘tkazib beriladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari:

- yagona ijtimoiy to‘lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to‘lash xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da’volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o‘rni qoplanadigan mablag‘lar tushumining bir qismi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari, majburiy to‘lovlar, badallar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun hisoblangan jarimlar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer va dehqon xo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o‘rnini qoplash uchun to‘lanadigan nazarda tutilgan mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibi bo‘yicha 2013, 2014, 2015 yillar ijrosi tahlilini 2.2-jadval ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqamiz.

2.2.-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya
jamg‘armasining daromadlari ijrosi¹⁴**

№	Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
		mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)
1	Yagona ijtimoiy to‘lovdan o‘tkazmalar	4799,2	59,5	5907,4	57,3	7299,5	56,1
2	Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug‘urta badallari	1110,2	13,8	1482,7	14,4	1877,2	14,4
3	Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1401,5	17,4	1591,3	15,4	1933,0	14,8
4	Boshqa daromadlari	474,4	5,9	718,5	7,0	836,7	6,4
	Daromadlar	7785,3	96,5	9699,9	94,2	11946,4	91,7
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	280,1	3,5	602,2	5,8	1067,3	8,3
	Jami daromadlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi №1675, 2012 yil 12 dekabrdagi №1887-sonli va 2013 yil 25 dekabrdagi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Pensiya jamg'armasining jami daromadlari 2013 yilda 8065,4 mld. so'mni tashkil etgan, 2014 yilda 10302,1 mld. so'mni tashkil etgan, 2015 yilda esa 13013,7 mld. so'mni tashkil etgan.

Jamg'arma daromadlarining tarkibida Yagona ijtimoiy to'lovdan o'tkazmalar salmog'i yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yagona ijtimoiy to'lovdan o'tkazmalar jami daromadlarda 2013 yilda 59,5 foizni tashkil etgan, 2014 yilda 57,3 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 56,1 foizni tashkil etgan.

Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug'urta badallari jami daromadlarda 2013 yilda 13,8 foizni tashkil etgan, 2014 yilda 14,4 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 14,4 foizni tashkil etgan.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmidan majburiy ajratmalar esa, jami daromadlarda 2013 yilda 17,4 foizni tashkil etgan, 2014 yilda 15,4 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 14,8 foizni tashkil etgan.

Jamg'armaning boshqa daromadlari jami daromadlarda 2013 yilda 5,9 foizni tashkil etgan, 2014 yilda 7,0 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 6,4 foizni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'1 jamg'armasining daromadlari:

- Respublika yo'1 jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo'1 jamg'armasiga yig'imlar;
- vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar;
- qonun hujjalariiga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo'1 jamg'armasining daromadlari tizimini 2013, 2014, 2015 yillar ijrosini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Respublika yo'1 jamg'armasi jami daromadlari 2013 yilda 1572,1 mld. so'mni tashkil etgan, 2014 yilda 2290,8 mld. so'mni tashkil etgan, 2015 yilda esa 2522,6 mld. so'mni tashkil etgan (2.3-jadval).

Jami daromadlarining shakllanish manbalari ichida tovar (ish xizmatlar) ning realizatsiya xajmidan majburiy ajratmalar 2013 yilda 69,4 foizni tashkil etgan, 2014 yilda 55,0 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 56,5 foizni tashkil etgan.

2.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasining daromadlari ijrosi¹⁵

№	Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
		mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)
1	Tovar (ish xizmatlar) ning realizatsiya xajmidan majburiy ajratmalar	1090,5	69,4	1261,0	55,0	1426,4	56,5
2	Avtomobil vositalarining xarid qilganligi yoki ularning vaqtinchalik olib kirayotgan shaxs egalarini ro‘yxatga olganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi IIV organlaridagi yig‘imlar	90,0	5,7	120,0	5,2	234,1	9,3
3	Xorijiy mamlakatlar avtotransportlari O‘zbekiston xududiga kirganligi uchun to‘lovlar	13,4	0,9	25,0	1,1	53,5	2,1
4	Xalqaro moliya institatlari zayomlari	241,8	15,4	507,0	22,1	743,4	29,4
5	Boshqa tushumlar	2,2	0,1	8,0	0,3	10,8	0,4
	Daromadlar	1437,9	91,5	1921,0	83,9	2468,6	98,0
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	134,2	8,5	369,8	16,1	54,0	2,0
	Jami daromadlar	1572,1	100,0	2290,8	100,0	2522,6	100,0

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi №1675, 2012 yil 12 dekabrdagi №1887-sonli va 2013 yil 25 dekabrdagi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

Avtomobil vositalarining xarid qilganligi yoki ularning vaqtinchalik olib kirayotgan shaxs egalarini ro‘yxatga olganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi IIV organlaridagi yig‘imlar jami daromadlarda 2013 yilda 5,7 foizni tashkil etgan va 2014 yilda 5,2 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 9,3 foizni tashkil etgan. Xalqaro moliya institutlari zayomlari jami daromadlarda 2013 yilda 5,7 15,4 foizni tashkil etgan va 2014 yilda 22,1 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 29,4 foizni tashkil etgan.

Xorijiy mamlakatlar avtotransportlari O‘zbekiston xududiga kirganligi uchun to‘lovlar jami daromadlarda 2013 yilda 0,9 foizni tashkil etgani holda, 2014 yilda 1,1 foizni tashkil etgan, 2015 yilda 2,1 foizni tashkil etgan.

Davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasining daromadlari:

- davlat mulki bo‘lgan korxonalarini, xo‘jalik jamiyatlarining ustav jamg‘armalaridagi aktsiyalarni (ulushlarni), yer uchastkalari va boshqa mol-mulkni realizatsiya qilish;

- ustav jamg‘armalarida davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarini tugatishdan tushgan tushumlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining daromadlari:

- belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;

- vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining daromadlari:

- Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

- vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi daromadlari:

- har yili tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining asosiy parametrlari doirasida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to‘lanadigan yagona yer solig‘i bo‘yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;

- byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag‘lar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari:

- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag‘lari;

- vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat:¹⁶

- Davlat byudjeti xarajatlari;

- Davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari;

- Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqar jamg‘armalari xarajatlari.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

- nodavlat notiyorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

- iqtisodiyot xarajatlari;

- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

- sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

- boshqa xarajatlar.

Davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qilar ekanmiz, 2.4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xarajatlar tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O‘RQ-360-son Qonuni

2.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Byudjetining xarajatlar tizimi¹⁷

№	Ko‘rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
		mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)								
I	Davlat maqsadli jamg‘rmalarsiz xarajatlar jami	13732,5	100,0	16991,1	100,0	21571,7	100,0	26312,4	100,0	31582,3	100,0
1.	<i>Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun harajatlar – jami shu jumladan:</i>	8113,0	59,1	10112,3	59,5	12513,2	58,0	15573,5	59,2	18783,4	59,47
1.1	Ma‘orif	4635,0	33,8	5890,8	34,7	7223,7	33,5	8984,6	34,1	10765,9	34,01
1.2	Sog‘liqni saqlash	1704,1	12,4	2217,7	13,1	2820,3	13,1	3768,6	14,3	4495,3	14,23
1.3	Madaniyat va sport	159,9	1,2	194,8	1,1	226,9	1,1	279,1	1,1	334,6	1,06
1.4	Fan	83,5	0,6	111,0	0,7	140,4	0,7	173,1	0,7	199,2	0,63
1.5	Ijtimoiy ta‘minot	59,3	0,4	74,3	0,4	93,8	0,4	107,3	0,4	125,9	0,40
1.6	O‘ilalarga ijtimoiy nafaqalar, shu jumladan bolali o‘ilalar	1431,9	10,4	1582,5	9,3	1899,0	8,8	1839,9	7,0	2047,0	6,48
1.7	Oliy o‘quv yurtlarini moddiy-tehnik bazasini rivojlantirish fondi	-	-	-	-	70,0	0,3	-	0,0	760,0	2,4
2.	<i>Qishloq joylarda yakka tartibdag‘i ny-joy qurilishi Dasturini moliyalashtirish bo‘yicha kredit limiyasi</i>	-	-	-	-	-	-	374,7	1,4	-	-
3.	<i>MNJ, MPJ va fugarolar jamiyatlar institutini rivojlantirish mablag‘lari va grantlari</i>	4,5	0,03	5,0	0,03	6,0	0,03	7,0	0,03	8,2	0,03
4.	<i>Iqtisodiyot xarajatlari</i>	1573,2	11,5	1952,1	11,5	2372,0	11,0	2791,9	10,6	3385,3	10,72
5.	<i>Markazlashtirilgan investitsiyalarни moliyalashtirish xarajatlari</i>	825,0	6,0	950,0	5,6	1059,3	4,9	1300,0	4,9	1500,0	4,75
6.	<i>Davlat hokimiyati, boshqaruva va sud organlarini saqlash xarajatlari</i>	352,0	2,6	472,3	2,8	629,2	2,9	825,9	3,1	1000,8	3,17
7.	<i>Fugarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari</i>	118,5	0,9	152,2	0,9	191,7	0,9	287,3	1,1	343,7	1,09
8.	<i>Vazirlarlar Mahkamasining zahira jamg‘rmasi</i>	54,1	0,4	57,0	0,3	70,9	0,3	85,0	0,3	91,0	0,29
9.	Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, capital ta‘mirlash va ta‘minlash fondiga o‘tkaziladigan mablag‘lar	-	-	-	-	264,0	1,2	-	-	-	-
10.	<i>Boshqaa xarajatlar</i>	2692,0	19,6	3290,1	19,4	4465,4	20,7	5441,8	20,7	6469,9	20,49

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi PQ-1245, 2010 yil 24 dekabrdagi PQ-1449, 2011 yil 30 dekabrdagi №1675, 2012 yil 12 dekabrdagi №1887-sonli va 2013 yil 25 dekabrdagi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

quvvatlash xarajatlari salmoqli o‘ringa ega. Ushbu xarajatlar 2012 yilda 59,5 foizni 2013 yilda 58,0 foizni, 2014 yilda 59,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 59,5 foizni tashkil etgan. Jumladan, ta’lim xarajatlari 2012 yilda 34,7 foizni 2013 yilda 33,5 foizni, 2014 yilda 34,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 34,0 foizni tashkil etgan.

Sog‘liqni saqlash xarajatlari 2013 yilda 13,1 foizni, 2014 yilda 14,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 14,2 foizni tashkil etgan. Madaniyat va sport xarajatlari 2012, 2013 yillarda 1,1 foizni, 2014 yilda 1,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 1,1 foizni tashkil etgan. Fan xarajatlari 2012, 2013 yillarda 0,7 foizni, 2014 yilda ham 0,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 0,6 foizni tashkil etgan. Ijtimoiy ta’midot xarajatlari o‘zgarmas tendentsiyaga ega ya’ni, 2012, 2013, 2014 yillarda 0,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda ham 0,4 foizni tashkil etigan. Oilalarga ijtimoiy nafaqalar (shu jumladan, bolali onalarga) xarajatlari 2012 yilda 9,3 foizni 2013 yilda 8,8 foizni, 2014 yilda 7,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 6,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyot xarajatlari 2012 yilda 11,5 foizni, 2013 yilda 11,0 foizni, 2014 yil 10,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 10,7 foizni tashkil etgan. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari 2012 yilda 5,6 foizni, 2013 yilda 4,9 foizni, 2014 yil 4,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 4,8 foizni tashkil etgan. Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlarini saqlash harajatlari 2012 yilda 2,8 foizni, 2013 yilda 2,9 foizni, 2014 yil 3,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 3,2 foizni tashkil etgan. Fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari 2012 yilda 0,9 foizni, 2013 yilda 0,9 foizni, 2014 yil 1,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda ham 1,1 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi jamlanma byudjeti xarajatlari ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash xarajatlaridan ta’lim xarajatlarining salmog‘i kattadir.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

- 1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

- 2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- 3) iqtisodiyot xarajatlari;
- 4) respublika vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- 5) davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 6) sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasini shakllantirish xarajatlari;
- 8) boshqa xarajatlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

- 1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- 2) iqtisodiyot xarajatlari;
- 3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- 4) mahalliy davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarini xarajatlari;
- 5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;
- 6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash xarajatlari;
- 7) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va

shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subventsiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlari amalga oshiriladi:

- 1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- 2) iqtisodiyot xarajatlari;
- 3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;
- 4) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- 5) boshqa xarajatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari;

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi xarajatlari;

-Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi xarajatlari;

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi xarajatlari;

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi xarajatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari quyidagilarga xarajat qilinadi:

-ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

-ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash;

-davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo‘lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;

-dafn etish marosimi uchun nafaqalar;

-belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tarkibi bo‘yicha 2013, 2014, 2015 yillar ijrosi tahlilini 2.5 - jadval ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqamiz.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, Pensiya jamg‘armasining jami harajatlari 2013 yilda 8065,4 mld. so‘mni, 2014 yilda 10302,1 mld. so‘mni tashkil etgan, 2015 yilda esa 13013,7 mld. so‘mni tashkil etgan.

Jamg‘arma xarajatlarining tarkibidagi eng katta xarajat bu ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlaridir.

Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovleri jami xarajatlarda 2013 yilda 89,8 foizni, 2014 yilda 88,3 foizni tashkil etib, 2015 yilda 86,0 foizni tashkil etgan.

Ishlaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovleri jami xarajatlarda 2013 yilda 3,6 foizni, 2014 yilda 3,1 foizni tashkil etib, 2015 yilda 3,3 foizni tashkil etgan.

Mehnatga layoqatsiz va qariyalarga nafaqalar, dafn uchun nafaqalar va boshqa to‘lovlar jami xarajatlarda 2013-2014 yillarda 0,2 foizni tashkil etib, 2015 yilda ham 0,2 foizni tashkil etgan.

Jamg‘armaning boshqa xarajatlari jami xarajatlarda 2013 yilda 0,02 foizni, 2014 yilda 0,02 foizni tashkil etib, 2015 yilda ham 0,02 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining mablag‘lari quyidagilarga xarajat qilinadi:

-umumiylar foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash, saqlash, shu jumladan jihozlash (texnologik asbob-uskunalar, texnika va mashina-mexanizmlar olish);

-umumiylar foydalanishdagi avtomobil yo‘llari sohasidagi maxsus vakolatli organ, uning hududiy yo‘l-ekspluatatsiya tashkilotlari boshqaruv apparati xodimlarining hamda muhandis - texnik xodimlarining va Jamg‘armaning ijro

2.5-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining
xarajatlar ijrosi¹⁸**

№	Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
		mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)
	Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlar	7246,0	89,8	9097,9	88,3	11191,9	86,0
	Ishlaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlar	290,9	3,6	317,4	3,1	426,6	3,3
	Mehnatga layoqatsiz va qariyalarga nafaqalar, dafn uchun nafqalar va boshqa to‘lovlar	12,8	0,2	20,5	0,2	29,1	0,2
	Boshqa xarajatlar	1,8	0,02	2,1	0,02	2,4	0,02
	Yil oxiriga qoldiq	513,9	6,4	864,2	8,4	1363,7	10,5
	Jami xarajatlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi №1675, 2012 yil 12 dekabrdagi №1887-sonli va 2013 yil 25 dekabrdagi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

etuvchi direktsiyasi xodimlarining malakasini oshirish;

-Jamg‘armaning ijro etuvchi direktsiyasini, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari sohasidagi maxsus vakolatli organning ijro etuvchi devonini hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy yo‘l-ekspluatatsiya tashkilotlarini saqlab turish;

-belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasining xarajatlari tizimini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, jamg‘arma jami xarajatlari 2013 yilda 1572,1 mlrd. so‘mni, 2014 yilda 2290,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2015 yilda 2522,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan (2.6-jadval).

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruktsiya qilish uchun xarajatlar 2013 yilda 724,9 mlrd. so‘mni, 2014 yilda 1311,3 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda, jami xarajatlardagi salmog‘i 2013 yilda 46,1 foizni 2014 yilda 57,2 foizni tashkil etgan. 2015 yilda 1411,4 mlrd. so‘m umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruktsiya qilish uchun xarajatlar qilingan. Bu 2015 yil jami xarajatlarning 56,0 foizni tashkil etadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va saqlash uchun xarajatlar 2014 yilda 525,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2014 yilda 661,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2015 yilda 671,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Jami xarajatlardagi salmog‘i 2013 yilda 33,4 foizni, 2014 yilda 28,9 foizni tashkil etib, 2015 yilda 26,6 foizdan iborat.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatiga ko‘ra davlat maqsadli fondlar daromadlari va xarajatlari tarkibi bo‘yicha yillar davomida o‘zgarish tendentsiyasiga ega bo‘lib, pirovard natija iqtisodiyotni izchil rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgandir.

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasining mablag‘lari quyidagilarga xarajat qilinadi:

-xususiylashtirishdan tushgan umumiy mablag‘lardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra bir yo‘la to‘lanadigan to‘lovlar;

2.6-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasining
xarajatlari ijrosi¹⁹**

№	Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
		mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan (%)
1	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish uchun xarajatlar	14,0	0,9	10,0	0,4	22,0	1,0
2	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruktsiya qilish uchun xarajatlar	724,9	46,1	1311,3	57,2	1411,4	56,0
	shundan Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan	205,9	13,1	471,1	20,6	743,4	29,5
3	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash uchun xarajatlar	525,4	33,4	661,0	28,9	671,9	26,7
4	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilishga mashina va mexanizmlarni xarid qilish uchun xarajatlar	26,0	1,7	31,5	1,4	85,9	3,5
5	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasi boshqaruv apparatini saqlash uchun xarajatlar	3,1	0,2	3,9	0,2	4,6	0,2
6	O‘zavtoyo‘l DAK markaziy boshqaruv apparatini saqlash uchun xarajatlar	1,0	0,1	1,2	0,1	1,5	0,06
7	O‘zavtoyo‘l DAK markaziy boshqaruv apparatini va sho‘ba yo‘l-ekspuatatsiya korxonalarini saqlash uchun xarajatlar	5,9	0,4	7,4	0,3	8,3	0,3
8	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 oktyabrdagi 499-soni Qaroriga muvofiq tabiiy ofatlarni bartaraf etish uchun rezervlar	73,0	4,6	75,0	3,3	62,0	2,4
9	Umumiy foydalanishdagi yo‘llarini qurish, ta‘mirlashi ta‘mirlash va saqlash bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	26,8	1,7	50,0	2,2	162,6	6,5
10	Bojxona postlarida valyuta tushumlarini yig‘ish va nazorat qilishga xizmat ko‘rsatuvchi banklar va Respublika Yo‘l jamg‘armasi, Davlat bojxona qo‘mitasi o‘rtasida shartnomalarni ijo qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik xarajatları	0,9	0,1	1,0	0,04	1,0	0,04
11	Boshqa xarajatlar	62,1	4,1	84,5	3,7	41,4	1,6
	shundan Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan	35,9	2,3	35,9	1,6	0,0	0,0
	Yil oxiriga qoldiq	109,0	6,9	54,0	2,4	0,0	0,0
	Jami xarajatlar	1572,1	100,0	2290,8	100,0	2522,6	100,0

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi №1675, 2012 yil 12 dekabrdagi №1887-sonli va 2013 yil 25 dekabrdagi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

- davlat aktivlarini olish bo'yicha belgilangan tartibda bekor qilingan shartnomalar yuzasidan mablag' larni sotib oluvchilarga qaytarish;
- davlat aktivlarini realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- davlat korxonalarini xususiyashtirishda aktsiyalarni chiqarish, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- baholash, ilmiy-tadqiqot, auditorlik, moliyaviy, konsalting tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, mustaqil ekspertlarning amaliy tadqiqotlarni bajarish, tegishli ekspertizani o'tkazish, normativ-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, davlat aktivlarini sotishdan oldingi tayyorgarlikni o'tkazish xizmatlari haqini to'lash xarajatlari;
- yuridik shaxslarning aktsiyalari, ulushlari, paylarini, shuningdek boshqa aktivlarni davlat manfaatlarini ko'zlab olish bilan bog'liq xarajatlar;
- davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha xizmatlar haqini to'lash xarajatlari;
- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsaddagi xarajatlar uchun foydalilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari quyidagilarga xarajat qilinadi:

- ishsiz deb topilgan shaxslarni kasbiy tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari;
- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari taklifiga binoan ishslash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash hamda ishsizlarga moddiy yordam berish;
- ishsiz deb topilgan shaxslarga muddatidan ilgari pensiya tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarining o'rmini qoplash;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamoat ishlariga haq to'lash;
- nogironlar, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalinish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini va ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

-qonun hujjatlariga muvofiq bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining alohida bo‘linmalarini saqlab turish, shuningdek ularni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash;

-respublika miqyosida va hududiy miqyosda sotsiologik kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish, bandlik masalalari bo‘yicha aholining ayrim guruhlarida anketa so‘rovlарини о‘tkazish;

-mehnat bozorining respublika va hududiy axborot tizimlarini yaratish va ularning dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, shu jumladan texnika vositalari olish;

-ish bilan band bo‘lмаган ахолига yordam ko‘rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko‘maklashish va maslahat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar;

-aholi bandligi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni hamda xalqaro loyiҳalar va shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;

-chet elga ishga yuborilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ularning ijtimoiy muhofaza qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlar;

-belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining mablag‘lari quyidagilarga xarajat qilinadi:

-umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash, o‘quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalarini, kompyuter texnikasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limga ko‘maklashuvchi boshqa elementlari, o‘quv mebeli va anjomlari bilan tizimli ravishda qayta jihozlash ishlarini moliyalashtirish;

-sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash ishlarini moliyalashtirish;

-sog‘liqni saqlash muassasalarini eng yangi laboratoriya, tashxis qo‘yish va davolash asbob-uskunalarini, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiy apparatlar,

maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlash hamda tizimli ravishda qayta jihozlashni moliyalashtirish;

-belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining mablag‘lari quyidagilarga xarajat qilinadi:

-sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida magistral (viloyatlararo), tumanlararo, xo‘jaliklararo ochiq kollektorlarni va ulardagи inshootlarni, yopiq gorizontal drenaj tarmoqlarini, vertikal drenaj quduqlarni, meliorativ nasos stantsiyalarini hamda kuzatish tarmoqlarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash va tozalash;

-sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlariga kiritiladigan loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq loyiha-qidiruv hujjatlarini ixtisoslashtirilgan loyihalash tashkilotlari tomonidan ishlab chiqish;

-ixtisoslashtirilgan qurilish va foydalanish tashkilotlari, suv iste’molchilar uyushmalarining meliorativ texnika parkini mablag‘larni qaytarish asosida yangilashni, shu jumladan uzoq muddatli imtiyozli lizing shartlari asosida yangilashni moliyalashtirish tadbirlari;

-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasini boshqarish departamentini hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining qurilayotgan korxonalar birlashgan direktoriyaning melioratsiyaga taalluqli qismini saqlab turish;

-sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlarida nazarda tutilgan boshqa ishlar uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan:

-oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-laboratoriya korpuslarini, sport zallarini va talabalar yashab turgan joylarni hamda boshqa infratuzilma ob’ektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash ishlarini moliyalashtirish;

-oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-laboratoriya korpuslarini, sport zallarini, talabalar yashab turgan joylarni hamda bирgalikda foydalilanidigan oliy o‘quv yurtlariaro ilmiy-laboratoriya komplekslarini mebel, zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari va ilmiy asbob-uskunalar, axborot-kommunikatsiya texnikasi va sport anjomlari bilan jihozlashni moliyalashtirish;

-belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsadlar uchun foydalilanadi

III BOB. BYUDJET TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1 Byudjet tizimi islohotlari doirasida davlat byudjeti g‘azna ijrosini rivojlantirish istiqbollari

Davlatning jamiyat oldidagi asosiy vazifalarini bajarishdagi rolini oshirgan holda iqtisodiyotni erkin tamoyillar asosida modernizatsiyalash amaldagi qonunchilikka mufoviq xarajatlar va moliyaviy oqimlar yo‘nalishlari ustidan samarali nazoratni ta’minlashga qodir bo‘lgan zamonaviy moliya tizimini yaratishni talab qiladi. Moliya tizimi o‘zidagi mavjud usullardan foydalanib, ularni takomillashtirgan holda iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun byudjet jarayonining yuqori darajadagi tiniqligi va oddiyligini taminlashga xizmat qiladi. Davlat xarajatlari va daromadlarini boshqarish orqali ishbilarmonlik faoliyatni rag‘batlantirish, pulning qadrsizlanishiga va ishsizlikka ta’sir etish mumkin. Bu siyosatning eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiy siyosatning maqsadlarini amalga oshirish imkonini beruvchi markazlashgan davlat pul jamg‘armalarini shakllantirish manbalari va usullarini izlab topishdan iboratdir.

Davlat moliyasini institutsional isloh qilishni quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- ✓ islohotlar davlatning mablag‘larini, aktivlarini va majburiyatlarini boshqarishning mamlakat rivojlanishiga ko‘maklashuvchi zamonaviy, yagona va samarali tizimini tashkil etishga yo‘naltirilishi,
- ✓ davlat moliyasini isloh qilish soliq-byudjet islohotlariga qaraganda ancha kengligi, soliq va byudjet tartibotlarining o‘zgarishi tarkibiy va funktsional siljishlar tashqarisida amalga oshirilsa samarali bo‘lmasligi,
- ✓ rejallashtirilayotgan tarkibiy islohotlarni mamlakat moliya siyosatining o‘rtasi va uzoq muddatli maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan davlat boshqaruvining barcha usullaridan foydalangan holda joriy byudjetni rejallashtirish doirasidan tashqariga chiqib, bunda davlatning tashqi va ichki majburiyatları va aktivlarini baholagan holda yagona tizimga bog‘lash kabi omillarga asoslanishi,

✓ bunda islohotlar jarayonida ularga erishish mexanizmlari bosqichlari belgilanishi va uning strategiyasi ishlab chiqilishi hamda byudjetni fiskal-taqsimlash mexanizmidan iqtisodiyotni rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vositaga aylantirish zarur.

O‘zbekiston moliya tizimini isloh qilish sharoitida uning institutsional-instrumental ta’minotining xo‘jalik yuritishning yangi sharoitlariga moslashuvi yuz beradi, bu hol iqtisodiyotning erkinlashuviga qarab moliyaviy munosabatlar tub mohiyatining o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davlatga iqtisodiy va ijtimoiy sohani tartibga solish imkonini beruvchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblangan davlat moliyasi tizimini ham chetlab o‘tmadi. Mazkur sohada amalga oshiriladigan institutsional tuzilmani isloh qilish ko‘p jihatdan milliy iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirish yo‘nalishlari va sur’atlarini belgilab beradi.

Byudjet va pul muomalasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatining barometri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda butun mamlakat bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning 35-40 foizi va milliy daromadning 30 foizga yaqini u orqali qayta taqsimlanmoqda. Davlat byudjetida nafaqat daromadlar va xarajatlar, balki iqtisodiy rivojlanishning qolgan barcha parametrlari qayd etiladi. Shuning uchun Davlat byudjetiga butun moliyaviy tizimning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, ishonch bilan aytish mumkinki, davlat byudjeti va uning ijrosi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon amaliyotidan ma’lumki, istalgan mamlakatda davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish tizimida byudjetni tartibga solishning u yoki bu modeli amalga oshirilishini ta’minlovchi tashkiliy tuzilma muhim rol o‘ynaydi. Chet elda ana shunday tashkiliy tuzilma sifatida an’anaviy tarzda g‘aznachilik instituti ishtirok etadi va u o‘z rivojinining ko‘p yillik davri mobaynida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishda byudjet sohasidagi moliyaviy siyosatini amalga oshirish vositasiga aylandi. G‘aznachilikning bat afsil hisobga olishning barcha bosqichlarida ishtirok etishi byudjetning muvozanatlashganligi tamoyilini amalga oshirish, mavjud makroiqtisodiy vaziyat sharoitida prognoz qilish jarayonida yuzaga keladigan nomutanosibliklarning o‘rnini qoplash imkonini

beradi. G‘aznachilikning ishtiroki prognoz qilinayotgan resurs bazasidan kelib chiqib mazkur davrda ustuvor bo‘lgan yo‘nalishlarni va davlat byudjetini moliyalash hajmini to‘g‘ri va aniq belgilash imkonini beradi.

G‘aznachilik tizimi iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish hamda ijro etuvchi hokimiyat instituti va davlat moliyaviy resurslari jumladan, byudjetlarni ijro etish jarayonida byudjet jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida daromadlarni jamg‘arish, ularni taqsimlash va byudjet mablag‘larini muayyan oluvchilarga yetkazish, davlat aktiv va majburiyatlarini hisobini olib borish shuningdek, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning topshirig‘iga ko‘ra operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalovchi institutsional tizim hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, g‘aznachilik organlari faoliyatini takomillashtirish davlat byudjetining g‘azna ijrosini rivojlantirish va samarali tashkil etishning asosiy omillari hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq:

- byudjet jarayonining yagona metodologiyasi, byudjet ijrosining g‘azna shaklini samarali qo‘llovchi mamlakatlarning to‘plangan tajribasini har tomonlama o‘rganish va umumlashtirish asosida Davlat byudjeti g‘azna ijrosi bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi o‘z normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va davlat moliyaviy resurslarining g‘azna hisobini yuritish shuningdek, byudjetlar g‘azna ijrosi tamoyillarini mustahkamlovchi holatga keltirish;

- davlat moliyaviy resurslarini jumladan davlat daromadlari va xarajatlari ijrosini kassaviy rejalashtirish va pul mablag‘larini boshqarish, uni hisobini yuritish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish;

- g‘aznachilik davlat moliyaviy resurslari jumladan, byudjet jarayoni barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning alohida mexanizmini talab qilinishini inobatga olib, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘larining ijrosini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha moliyaviy jarayonlar puxta reglamentlanishi va ishtirokchilarning huquqi va javobgarligi aniq chegaralanishi bo‘yicha huquqiy hujjatlarni takomillashtirish;

-byudjetlar g‘azna ijrosi butun jarayonining yagona axborot tizimini joriy etish, rivojlantirish va undan samarali foydalanishni tashkil etish va bunda davlat byudjetining g‘azna ijrosi axborot tizimi nafaqat davlat moliyasi, balki boshqa davlat moliyaviy resurslari uning daromadlari va xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa sohalarni ham qamrab oluvchi axborot oqimlari tizimi va uning huquqiy himoyalash ob’ektlarini belgilab beruvchi kontseptual asoslarni ishlab chiqish;

-bugungi kunda davlat byudjetining xarajatlari qismi to‘liq g‘azna ijrosi bilan qamrab olinganligini inobatga olgan holda, endilikda davlat byudjeti daromadlari qismini g‘azna ijrosi bilan to‘liq qamrab olinishiga erishishda asosiy e’tiborni davlat byudjeti daromadlari g‘azna ijrosi metodologiyasini ishlab chiqishga va uni me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratishga hamda takomillashtirib borishga qaratish;

-g‘aznachilik tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilayotgan bir paytda, byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan g‘aznachilik organlari o‘rtasida o‘zaro integrallashgan axborot tizimini ham joriy etish, bunda asosiy e’tibor byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan shartnomalar va to‘lov topshiriqnomalarini g‘aznachilik organlariga online rejimi tizimida jo‘natish va qabul qilish jarayoniga qaratish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, respublikamizda byudjet tizimi islohotlari sharoitida g‘aznachilik tizimi institutini jadal rivojlantirish istiqbolda yuqori natijalarni ta’minlaydi.

3.2 Byudjet islohotlari sharoitida davlat byudjetini o‘rta muddatli istiqbolini belgilashni rivojlantirish masalalari

Respublikamizda byudjet islohotlari sharoitida davlat byudjetini o‘rta muddatli istiqbolini belgilashni rivojlantirishda uning qator afzalliklariga to‘xtalib o‘tish joizdir.

Byudjetni o‘rta muddatli istiqbolini belgilashning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-byudjet xarajatlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aynan o‘rtacha muddatli davrda davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va keng amalga oshirish yo‘li bilan yechish mumkin.

Aniq maqsadlarga erishish uchun tuzilgan har qanday dastur byudjetni moliyalashtirish dasturiga aylanadi. Bunday dasturlar tuzilganida byudjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish va moliyalashtirish natijalarining nomuayyanligi muammolari o‘z-o‘zidan yo‘qoladi;

-byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjet mablag‘larini tasarruf etish borasidagi mustaqilligini oshirish va ishning o‘lhash mumkin bo‘lgan aniq natijalari uchun ularning javobgarligini kuchaytirish imkoniyatini beradi. Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish joriy etilishi bilan byudjet jarayoni o‘rtacha muddatli makroiqtisodiy doiraga tushiriladiki, bu vazirliklar va idoralarning rahbarlari, byudjet mablag‘larini oluvchilarni o‘z siyosatining ustuvor vazifalarini yanada aniqroq ta’riflashga va bu vazifalar bir-biriga zid bo‘lmasligi haqida qayg‘urishga majbur etadi;

-byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirishning bir yillik ko‘rsatkichlaridan byudjetni rejalashtirish jarayonini kelgusi yillarda davom ettirish uchun foydalaniladi. Bundan maqsad – byudjetning barqarorligi va vorisiyligini ta’minlash, uning ochiqligi va asoslanganlik darajasini oshirish;

-byudjetdan mablag‘ ajratish asosli ravishda, davlat siyosatining ustuvor vazifalariga, ishlab chiqilgan byudjet dasturlariga muvofiq, ularning unumдорлик darajasiga baho berish asosida belgilanishi ta’minlanadi;

-byudjet ko‘rsatkichlarini tasniflash yagona tizimdan foydalanish printsiplarini, ularni davlat boshqaruving barcha darajalarida hisob-kitob qilish va hisobot berish metodologiyasini belgilanadi. Bu byudjetning ochiq va oshkoraliqini sezilarli darajada oshiradi, fiskal intizomni ta’minlash mexanizmlarini belgilaydi, davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy organlari o‘rtasida byudjet mustaqilligini nazarda tutadi, ichki va tashqi audit, davlat moliyaviy nazoratining asosiy printsiplarini mustahkamlaydi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o‘rta muddatli strategiyasi-iqtisodiyotni rivojlantirish maqsad va mo‘ljallari hamda ularga erishishning davlat

tomonidan rejalashtirilayotgan samarali yo‘llari va vositalarining kompleks tizimidir.

Kelgusida davlat byudjetini o‘rta muddatli istiqbolini belgilashga o‘tishda respublikamiz hukumati quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi Strategiya ishlab chiqilishini ta’minlashi lozim bo‘ladi (3.1-chizma):

- makroiqtisodiy vaziyatning miqdor ko‘rsatkichlari va sifat tavsifini, o‘tgan davrlarda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari rivojlanishining yakuniy natijalarini;

- makroiqtisodiy, tarkibiy va ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini;

- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi proqnozlarini, shu jumladan, makroiqtisodiy proqnozlarni;

- iqtisodiyotdagи ijobil tarkibiy o‘zgarishlar, ilmiy-texnika salohiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishi, ishlab chiqarish va iste’mol dinamikasi, turmush darajasi va sifatining o‘sishi, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya, sanitariya va aholini ijtimoiy ta’minlashning proqnoz baholarini;

- iqtisodiyot tarmoqlari, sektorlari va sohalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va mo‘ljallarini;

- ustuvor vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari va mexanizmlari majmuuni o‘z ichiga oladi.


Makroiqtisodiy proqnozlarni o‘rta muddatli byudjet jarayoniga samarali tatbiq etish uchun uch darajada bir qator institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Moliya vazirligida makroiqtisodiy proqnozlashtirish va byudjetni rejalashtirishning o‘zaro aloqasini ta’minlovchi ekspertlar guruhini tashkil etish. Bu guruh uchta muvofiqlashtiruvchi funktsiyani bajaradi:

- byudjetni shakllantirish jarayonida sifatli proqnozlarni tayyorlashda qabul qilinadigan nisbiy iqtisodiy farazlar xususida yagona bir fikrga kelish va ularni iqtisodiy rivojlanishning kuzatilayotgan hamda kutilayotgan tendentsiyalari nuqtai nazaridan qayta ko‘rish;

**O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining
O‘rta muddatli strategiyasi**

- makroiqtisodiy vaziyat, iqtisodiyot tarmoqlari (sektorlari)ning rivojlanishi, aholi turmush darajasining tahlili (muammolarni aniqlash);
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari;
- iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari;
- iqtisodiyot siyosat strategiyasi;



3.1-chizma. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘rta muddatli strategiyasini ishlab chiqish²⁰

-o‘rta muddatli prognozlarni byudjetni rejalashtirish sohasida ixtisoslashgan mutaxassislarga (shu jumladan, daromadlar va xarajatlar sohalaridagi siyosat uchun javobgar shaxslarga) ko‘rib chiqish uchun berish, prognozlarni ular bilan muhokama qilish va byudjetni rejalashtirish uchun ehtimol tutilgan oqibatlari xususida yagona bir fikrga kelish;

²⁰ Manba: Yo.Sh.Fayzullaev,I.A.Azizova Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish.Toshkent- 2010, 152-b.

-byudjetning u yoki bu variantlarini amalga oshirishning makroiqtisodiy oqibatlarini muhokama qilish, shuningdek, teskari aloqa kanallaridan axborot olish. Bu byudjet siyosati sohasida kelishilmagan qarorlar qabul qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning oldini olish imkoniyatini beradi.

2. Prognozlashtirish masalalarini muhokama qilish uchun Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning vakillaridan idoralararo ekspertlar guruhini tashkil etish. Bu guruh bir necha yil oldinga mo‘ljallangan makroiqtisodiy prognozlar va tegishli davr uchun byudjetni rejalashtirish o‘rtasidagi aloqalarga doir texnik masalalarni muhokama qilishi, bu aloqalarni yaxshilash bo‘yicha o‘z fikr- mulohazalari va tavsiyalarini taklif etishi lozim. Bu Moliya vazirligi boshqa tashkilotlar ishining natijalarini olish bilan kifoyalanmasdan, texnik tafsilotlarni muhokama qilish jarayonining to‘laqonli ishtirokchisiga aylanishi uchun zarur.

3. Keng, asosan siyosiy darajada barcha manfaatdor taraflar ishtirokida munozara forumini tashkil etish. Maqsad – ularga bir necha yil oldinga mo‘ljallangan makroiqtisodiy prognozlar haqida axborot berish. Bu prognozlarni amalga oshirish natijalarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun oqibatlarini hisobga olish va siyosatning tegishli variantlarini tanlashga ko‘maklashadi. Mazkur forum doirasida makroiqtisodiy prognozlarni tuzishning texnik jihatlari emas, balki ularning natijalari eng muhim siyosiy vazifalar nuqtai nazaridan muhokama qilinadi.

XULOSA

Keyingi yillarda mamlakatimizda byudjet tizimini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, byudjet munosabatlarini tartibga solish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda byudjet tizimi islohotlari doirasidagi jiddiy o‘zgarishlardan biri 2013 yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining qabul qilishi va 2014 yil 1 yanvardan amaliyotga joriy etilishi bo‘ldi. Mazkur o‘zgarish byudjet qonunchiligini mukammallashtirish, uni xalqaro me’yorlar talablariga moslashtirish borasidagi muhim o‘zgarishlardan biridir.

Shuni alohida aytish kerakki, 2014-2015 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta’minlash bilan birga, uning ayrim normalarini yanada takomillashtirildi.

Byudjet kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishdan asosiy maqsad – byudjet jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama-qarshi va eskirgan me’yorlarni bartaraf qiluvchi yagona qonun hujjatini ishlab chiqish va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi O‘zbekiston Respublikasining asosiy ikkita “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi va “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonunlarini, byudjet jarayonining alohida masalalarini tartibga soluvchi oltta qonun va boshqa bir qator hujjatlarni qamrab olgan.

Byudjet kodeksi butun byudjet jarayonini (davlat byudjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijro etishni hamda nazoratni ta’minlashni) yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirishni, davlat byudjetini ham, byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni ham tartibga solishning yagona printsiplarini qo‘llanishni, byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini belgilashni, barcha darajalardagi byudjetlar o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi.

Byudjet kodeksi O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat

tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Hozirgi keng ko‘lamli islohotlar sharoitida byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini tartibga solish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Byudjet tizimi deganda biz, barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish tamoyillarini, ular o‘rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar yig‘indisini tushunamiz.

Yuqoridagi xulosalar asosida respublikamizda byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida byudjet tizimi printsiplari aniq belgilangan bo‘lib, undagi muhim yangiliklardan biri byudjet mablag‘larining manzilli va maqsadli sarflanishi, byudjet mablag‘lari sarflanishining natijaviyligi va samaradorligi, kassaning yagonaligi, javobgarlik, ochiq-oydinlik (oshkoraliq) kabi byudjet tizimi printsiplari qo‘sishimcha kiritilganligini inobatga olgan holda, kelgusida byudjet tizimini boshqarishda mazkur printsiplarga qat’iy amal qilinishini ta’minalash;
2. Moliya vazirligi G‘aznachiligining davlat byudjeti ijrosini ta’minalashdagi vazifalari va funktsiyalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Byudjet kodeksida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlarini g‘aznachilik nuqtai nazaridan kengaytirish;
3. Hududiy g‘aznachilik organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini Byudjet kodeksiga kiritish;
4. Respublikamizda byudjet tizimi islohotlari doirasida natijaviylikka yo‘naltirilgan byudjetlashtirishni, Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirishni amaliyotga joriy etishni dastur doirasida ta’minalashga erishish;
5. Davlatning uzoq muddatga mo‘ljallangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Davlat dasturlarining muhim jihatlarini hisobga olgan holda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini rejalashtirishni takomillashtirish;

6. Byudjet jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida Yagona axbort almashuv tizimini joriy etish va unda quyidagilarga:

-axborot almashuv tizimining yagona texnik shartlar asosida dasturiy ta’minotlar majmuasi bilan ta’minlash;

-tizimni barqaror ishlashi va ma’lumotlarni telekommunikatsiya kanallari orqali uzatilishida axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi me’yoriy talablarni ishlab chiqish;

-byudjet jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro axborot almashishlari uchun yagona qoidalarni joriy qilish.

7. Davlat byudjeti ijrosi davomida moliya va g‘azna organlarining axborot dasturiy ta’minotini bir biriga muvofiqligini ta’minlash orqali byudjet ijrosi ma’lumotlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovutga barham berish imkoniyatlarini oshirish.

8. Byudjet jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida byudjet ijrosi bo‘yicha hisobotlar almashuvida o‘zaro elektron axborot almashuvini joriy etishni mukammallashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2010. 39 b. (o‘zgartirish va qo‘srimchalar bilan)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” Qonuni 2 sentyabr 1993 yil (o‘zgartirish va qo‘srimchalar bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y № 52-I-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘RQ-136-son Qonuni (o‘zgartirish va qo‘srimchalar bilan))
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagи «Davlat byudjetining G‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-594-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi PQ-1438-sonli qarori;
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdagи «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizom»ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 53-sonli qarori.
8. Davlat moliyasi tizimi. Me’yoriy huquqiy xujjatlar to‘plami. -T.: O‘zbekiston, 2005. 368-bet.
9. O‘zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining g‘azna ijrosi Qoidalari (Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustdagи 69 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentyabrda 2007-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

10. “O‘zbekiston Rnspublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida” gi Prezident qarori. PQ-1245сон. 22.12.2009.

11. “O‘zbekiston Rnspublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida” gi Prezident qarori. PQ-1449сон. 24.12.2010.

12. “O‘zbekiston Rnspublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida” gi Prezident qarori. PQ-1675сон. 30.12.2011.

13. “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-1887сон. 12.12.2012.

14. “O‘zbekiston Rnspublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-2099сон. 25.12.2013.

II. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

15. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O‘zbekiston, 2000. 52 b.

16. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo‘limiz. -T.: //Xalq so‘zi, 2002 yil 15 fevral.

17. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. Toshkent-«O‘zbekiston»-2009, 56 bet

18. Mirziyoev Sh.M. “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. //Xalq so‘zi, 2017 yil 16 yanvardagi 11-soni.

19. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.

20. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yil yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi, Xalq so‘zi, 2012 yil 20 yanvar, 14-son

21. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi, Xalq so‘zi, 2013-yil 19-yanvar, 13-son

22. I.A.Krimov. “2014 yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi ”O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Krimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 2014 yil 18 yanvar, № 13 (5943)

23. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida.T., O‘zbekiston. 2005. -526b.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

III. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

25. A.Sh.Bekmurodov, I.U.Majidov, U.V. G‘afurov, Sh.I.Mustafaqulov “Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan”, ilmiy-ommabop risola, “Oqituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2011, 198 b.

26. A.Vahobov, G.A.Qosimova Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. 260 b.
27. Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet: Uchebnik. T. “Iqtisod-moliya”, 2007
28. Malikov T., Xaydarov N. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2012.
29. Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, Darslik, Toshkent-2014.-500 b.
30. Srojiddinova Z.X. Byudjetlararo munosabatlar, O‘quv qo‘llanma, Toshkent- 2015.-500 b.
31. I.A.Azizova Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish, O‘quv qo‘llanma, Toshkent-2010.152 b.
32. Yo.Sh.Fayzullaev, I.A.Azizova Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish, Toshkent, 2010. 152 b.
33. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2012. 98 bet
34. Qosimova G., Karimova Z. Byudjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2009. 210-b.
35. Qosimova G. Shaakramov Q. Mahalliy byudjetlar, o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2012. 258-b.
36. Eshnazarov T. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2012. 303-b.
37. Qosimova G. Mahalliy byudjetlarni tuzish va az ta’minlash. (O‘quv qo‘llanma). T.: “Fan va texnologiya”, 2013 y. 280-b.

IV. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

38. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Finansi. T.: Izdatelskiy dom “Tasvir”, 2008.
39. Finansi Uzbekistana. 2012. Stat. sbornik.—T.: Gos.Departament statistiki, 2012. –158s.

40. Mirzaev T., Musagaliev A. Soliq islohotlari-iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosi. Bozor, pul va kredit 2007 yil №3. B 28-30
41. Qosimova G.A. Byudjet mablag‘i va uning samaradorligini oshirish muammolari. Mulkdor. 2010 yil, 7-aprel 14-son, B 7-8.
42. Qosimova G.A. Davlat moliyasii boshqarish islohotlari. Jamiat va boshqaruv. 2013.4-son. B. 46-48.
43. Sh.Axmadjanov A.Allakuliev. O‘zbekistonda natijaviylikka yo‘naltirilgan byudjetlashtirish masalalari va xorij tajribasi. Moliya ilmiy jurnali. 2012 yil 3-son, B. 5-7.

V. Internet saytlari

44. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali).
45. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
46. <http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
47. <http://www.soliq.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi).
48. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi).

Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining 2016 yilga belgilangan daromadlar va harajatlarining 2017 yil 1 yanvar holatiga aniqlangan

M A’L U M O T

Mahalliy

(ming. so’m)

K o’r s a t g i ch l a r	2015 yil yillik
Soliq va yig’imlar jami	376 668 391
1. Bevosita soliqlar	129 417 324
1.1 Huquqiy shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig’i	5 156 453
1.2 Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari yalpi daromadiga solinadigan soliq	23 402 154
1.3 Yagona soliq to’lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo’yicha	14 826 290
1.4 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	72 520 885
1.5 Tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi huquqiy va jismoniy shaxslar daromadidan qat’iy belgilangan soliq	13 511 572
2. Bilvosita soliqlar	138 858 944
2.1 Qo’shimcha qiymat solig’i	97 104 719
2.2 Aktsiz soliqi	15 356 407
2.3 Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste’mol qilinadigan benzin, dizel yoqilg’isi va gaz uchun soliq	26 397 818
3. Resurs to’lovlari va mol-mulk solig’i	69 664 655
3.1 Huquqiy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 799 768
3.2 Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 150 233
3.3 Yer solig’i (yagona yer solig’idan tashqari)	11 538 820
3.4 Yagona yer solig’i	5 051 067

1 – ilovaning davomi

3.5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	32 124 767
	4. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	3 836 005
	5. Boshqa soliq va yig'implar	34 891 463
5.1	Davlat boji	11 478 621
5.2	Jarimalar	9 405 348
5.3	Bozorlardan tushadigan tushum	2 957 662
5.4	Yo'l patrul xizmati yig'implari	2 941 143
5.5	Mahalliy yig'implar	1 412 158
5.6	Boshqa tushumlar	6 696 531

(ming. so'mda)

XARAJAT TURLARI	2015 yil yillik aniqlangan rejasi
XARAJATLARNING JAMI	563 388 255
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	4 198 723
Kommunal xo'jaligi xarajatlari	16 345 543
Iqtisodiyot bo'yicha xarajatlar - JAMI	20 544 266
Umumiy ta'lif	241 811 309
O'rta maxsus, oliv ta'lif va kadrlarning malakasini oshirish	67 700 570
Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	4 512 622
Fan	480 511
Sog'liqni saqlash	142 157 575
Jismoniy tarbiya	117 733
Ijtimoiy ta'minot	2 751 327
Ijtimoiy- madaniy tadbir xarajatlarining – JAMI	459 531 647
Davlat boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari	9 726 719
Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish idoralari sarf xarajatlari	11 109 289
Zaxira jamg'armalari	674 465
Boshqa sarf- xarajatlar	3 253 595
Bir yo'la beriladigan davlat taqdirlashlari va mukofotlarini to'lash xarajatlari	5 920
Ijtimoiy ko'nikma markazlari	405 172
Kapital qo'yilmalar va loyihalashtirish xarajatlari	18 963 851

2 – ilovaning davomi

Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar	39 173 331
Voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa	11 271 892
Ishlamagan onalarga bolasi 2 yoshga etgunga qadar parvarish uchun nafaqa	24 484 686
Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam	3 439 353
Mudofaa majmui, xuquqni himoya qilish idoralari va boshqa tarmoqlarni moliyalashtiradigan xarajatlar.	1 286 265

**Гулистон давлат университети ижтимоий-иктисодий факультет
5230100-“Иқтисодиёт” таълим йўналиши 42-13-гуруҳ талабаси Қобилов
Шерзоднинг “Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва бюджет
муносабатларининг ривожланиш босқичлари”
мавзусида бажарган битирув малакавий ишига**

ТАҚРИЗ

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимини самарали бошқаришнинг ҳозирги кундаги ҳолати назариётчилар олдига унинг қатор янги муаммоларига ечим топишни кўндаланг қилиб қўймоқда. Бу борада бюджет соҳасида олиб бораётган ўзгаришларнинг марказида бюджет тизими ва бюджет муносабатларини тубдан ўзгартириш, даромадлари базасини мустаҳкамлаш, иқтисодиётни ижтимоий-иктисодий ривожланишидаги тутган ўрнини ошириш масалалари туради.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов такидлаганидек - “Бизнинг ўз олдимизга қўйган асосий мақсадимиз – бошлаган ислоҳотларимиз, иқтисодиётимизни янгилаш ва модернизация қилиш жараёнларини давом эттириш ва чукурлаштириш, ҳаётимиз даражаси ва сифатини изчил ошириб бориши таъминлаш, тенглар ичиде тенг бўлиб, жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллашдан иборатdir.”

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими тараққиётининг ҳозирги босқичи давлатнинг яхлит бюджет ва ижтимоий сиёсатининг манфаатлари муштараклигини таъминлаш асосидаги ўта масъулиятли вазифаларни самарали бажарилишини талаб этмоқда. Иқтисодиётни модернизациялаш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш шароитида республикамида бюджет тизимини ислоҳ қилиш муҳим аҳамият касб этади, уни бугунги кундаги ижтимоий-иктисодий ўзгаришларга мослаштириш талаб этилади.

Битирув малакавий ишида келтирилган назарий ва амалий маълумотлар, кўрсаткичлар тахлили, хулоса ва таклифлардан иқтисодиётни модернизациялаш шароитида бюджет тизимини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишлари орқали бюджет қонунчилигини мустаҳкамлаш, бюджет ижросини таъминлашда ғазначилик фаолиятини самарали ташкил этишда, шунингдек, талабаларга бюджет тизими даромадлари ва харажатлари таҳлилининг назарий жихатларини тушунтиришда фойдаланиш мумкин.

Сирдарё вилоят Статистика
Бошқармаси бошлиғи ўринбосари:

Махмудов И.

**Гулистан давлат университети ижтимоий-иктисодий факультет
5230100-“Иқтисодиёт” таълим йўналиши 42-13-гуруҳ талабаси Қобилов
Шерзоднинг “Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва бюджет
муносабатларининг ривожланиш босқичлари”
мавзусида бажарган битириув малакавий ишига раҳбар
ХУЛОСАСИ**

Бюджет тизимини муҳим бўғини хисобланган Давлат бюджети мамлакат иқтисодиётини барқарорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади. Республикаизда сўнги йилларда бюджет тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида Ўзбекистон республикаси ўз иқтисодиётини барқарор суръатлар билан ривожлантиришни давом эттириб дунё бозорида ўзини мавқеини мустаҳкамлаб бормоқда.

2017 йил 7 феврал куни “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони қабул қилинди. Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид давлат дастурини мамлакатимизда мувоффақиятли амалга оширилиши, ўз вақтида маблағ билан тамилнанишида бюджет тизимининг роли ва аҳамияти ошиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида бюджет тизими бюджетлари даромадларини оширишни, уни мустаҳкамлашни ва бошқа даромад манбаларини излашни талаб этмоқда. Шунинг учун ҳам, иқтисодиётни модернизациялаш шароитида бюджет тизими бюджетларини молиявий таркибий тузилишини ўрганган ҳолда, уни бюджет тизими амалётига самарали татбиқ этишга алоҳида эътибор берилмоқда. Лекин шунга қарамай ушбу масала долзарб бўлиб қолмоқда.

Буларнинг барчаси битириув малакавий иши мавзусининг қанчалик долзарблигини белгилаб беради.

Битириув малакавий ишида келтирилган назарий ва амалий маълумотлар, кўрсаткичлар таҳлили, хulosса ва таклифлардан иқтисодиётни модернизациялаш шароитида бюджет тизимини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишлари орқали бюджет қонунчилигини мустаҳкамлаш, бюджет ижросини таъминлашда ғазначилик фаолиятини самарали ташкил этишда, шунингдек, талабаларга бюджет тизими даромадлари ва харажатлари таҳлилини назарий жиҳатларини тушунтиришда фойдаланиш мумкин. Қобилов Шерзод ўз ишида қўйилган мақсад ва вазифаларни тўлиқ бажарган. Талабамизнинг битириув малакавий ишини амалдаги Низом талабларига тўлиқ жавоб беришини, унинг билими ва малакаси қўйилган муаммоларни мустақил ҳал қилишга етарли эканлигига ишонч билдираман. Шу сабабли Қобилов Шерзоднинг “Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва бюджет муносабатларининг ривожланиш босқичлари” мавзусидаги битириув-малакавий ишини давлат атtestастия комиссиясида ҳимоя қилишга тавсия этаман.

Иш раҳбари:

«Иқтисодиёт» кафедраси
ўқитувчиси Г.Махмудова